

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

IQLIM O'ZGARISHINING ATROF MUHITGA TA'SIRI.

Toshev F.Z.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, katta o'qituvchisi, Buxoro sh.

Qurbonova X.B.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, stajyor-o'qituvchisi, Buxoro sh.

qurbonovax709@gmail.com

ВЛИЯНИЕ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ.

Тошев Ф.З.

*Бухарский инженерно-технологический институт,
старший преподаватель, г. Бухара, fazliddin_toshev@mail.ru*

Курбонова Х.Б.

*Бухарский инженерно-технологический институт,
преподаватель, г. Бухара, qurbonovax709@gmail.com*

IMPACT OF CLIMATE CHANGE ON THE ENVIRONMENT.

Toshev F.Z.

*Bukhara Engineering and Technology Institute, senior teacher, Bukhara
fazliddin_toshev@mail.ru*

Qurbonova X.B.

*Bukhara Engineering and Technology Institute, teacher, Bukhara
qurbonovax709@gmail.com*

Iqlim o'zgarishi muammosi yildan-yilga dolzarblashib bormoqda. Ba'zan bu iqlimning injiq bo'lib qolganligiga sabablar qidiramiz. Biroq ob-havoning so'nggi davrlardagi bunday injiqliklari umumiy qilib "iqlim o'zgarishi" deb atashimiz to'g'ri bo'ladi. Chunki ob-havo nafaqat yozgi kunlarda, balki qishda ham o'z injiqliklarini ko'rsatmoqda. Aslida iqlim o'zgarishlariga sababi ba'zi bir omillarini ko'rishimiz mumkin:

-1980 yildan, ya'ni ma'lumotlar global darajada qayd etilish boshlangandan beri va 2017 yil holatiga ko'ra, solishtiradigan bo'lsak, Yer sayyorasining harorati 1 °C ga oshgan. Bu raqam sezilarli emasdek ko'rinishi mumkin, ammo unga sayyora yuzasidagi o'rtacha ko'rsatkich sifatida qaraydigan bo'lsak, o'zgarish katta ekanligini, oqibatda muzliklar eriyotganini va dengizlar darajasining keskin ko'tarilayotganini ko'rishimiz mumkin. [1] Agar issiqxona gazlarining tarqalishi to'xtamasa, tadqiqotchilar Yer sayyorasi o'rtacha haroratining 4 °C ga oshishini prognoz qilishmoqda. Bu esa quruqlikning katta qismini inson hayoti uchun yaroqsiz holga keltirib qo'yadi; [2]

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

-XIX asrda olimlar ayrim gazlarning Yerdan chiqadigan issiqlikni ushlab turishini va ularning yordamisiz bu issiqlik koinotga chiqib ketishini aniqlashdi. Bu jarayonda asosiy rolni karbonat angidrid o'ynaydi: usiz sayyora muzlagan cho'lga aylangan bo'lar edi. 1896 yilda issiqxona gazlari konsentratsiyasining oshishi sababli sayyoradagi haroratning oshishi haqida ilk bor bashorat qilingan. [3] Bugungi kunda ularning atmosferadagi soni sanoat inqilobidan oldingi davrga nisbatan 43% ga oshdi va Yerning o'rtacha harorati olimlar bashorat qilgan qiymatgacha oshdi;

-sanoat issiqxona gazlari tarqalishining ulushini aniqlash uchun radioaktiv nurlanishdan foydalanilgan tadqiqotlar kabi ishonchli dalillar mavjud. [4] Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ortiqcha gaz inson faoliyatining natijasidir. Karbonat angidrid darajasi har doim tabiiy ravishda ko'tarilgan va tushib ketgan, ammo bu o'zgarishlar [5] minglab yillar davom etgan. Geologlarning ta'kidlashicha, odamlar iqtisodiy faoliyat davomida karbonat angidridni atmosferaga tabiatdan ko'ra ko'proq intensiv ravishda chiqaradi. [6]

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, yaqin 25–30 yil ichida iqlim yanada issiqlashadi va ob-havo sharoiti keskinlashadi. Atmosferaga issiqxona gazlari chiqindilari nazoratsiz ravishda tarqalishda davom etsa, olimlar buning uzoq muddatli jiddiy oqibatlarga olib kelishini ta'kidlashmoqda [7]: bular, dunyo tartibining buzilishi, keng ko'lamli migratsiya, yer tarixidagi o'simliklar va hayvonlarning oltinchi ommaviy yo'q bo'lib ketishining tezlashishi, muzliklar erishi, dengiz sathining ko'tarilishi va dunyoning qirg'oqbo'yi shaharlarining ko'p qismini suv bosishi kabi oqibatlardir. Ushbu xavflarni [8] keltirib chiqaradigan gazlar hozirdan o'z ta'sirini ko'rsatmoqda va bu bizning avlodimiz uchun oldimizda turgan chuqur ahloqiy savollar borasida bosh qotirish uchun bir imkoniyatdir. [9] Insoniyat uzoq vaqt davomida bu muammolarga [10] ahamiyat bermay keldi. Ammo yer yuzida qazib olinadigan yoqilg'i bor ekan, harakat qilish uchun hali ham kech emas. Atmosferaning qizishi faqat issiqxona gazlari chiqindilari nolga tushirilganidagina, potensial boshqarilishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichga keladi. Bugungi kunda avtomobillar uchun yoqilg'i tejamkorligi standartlari [11], jiddiy qurilish qoidalari va elektr stansiyalari uchun emissiya chegaralari kabi dasturlar natijasida hozirda ko'plab mamlakatlarda gaz chiqindilari miqdori kamaymoqda. Ammo iqlim o'zgarishining eng yomon oqibatlarini oldini olish uchun qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirish kerak [12]. Ekologik toza energiya iqtisodiyotga foyda keltiradi. Qayta tiklanadigan eng kam energiya manbalariga shamol turbinalari, quyosh panellari, gidroelektrostansiyalar va atom elektr stansiyalari kiradi. Tabiiy gazda ishlaydigan elektr stansiyalari ham ko'mir yoqadiganlarga qaraganda kamroq gaz chiqindilarini chiqaradi. Qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish qisqa muddatda qimmatga tushishi mumkin, ammo uzoq muddatda barcha investitsiyalar [13] iqlimga yetkazilgan zararni qoplash va havo ifloslanishi bilan bog'liq kasalliklarni kamaytirish orqali oqlanadi. Qayta tiklanadigan energiya bozorining kengayishi ularning tannarxini pasaytiradi [14] va natijada toza energiya dunyoning bir qancha mamlakatlarida ishlab chiqarilgan «iflos» energiyadan arzonroq bo'ladi. Toza energiyaga o'tish ko'mir kompaniyalari kabi ayrim sanoat

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

tarmoqlariga [15] zarar yetkazadi, ammo, yangi ish o'rinlarini ham yaratadi. Bugungi kunda ahamiyat berishimiz kerak bo'lgan yana biro mil "uglevod emissiyasi". Inson faoliyati natijasida chiqariladigan issiqxona gazlari odatda qisqacha «uglerod emissiyasi» deb ataladi. Buning sababi shundaki, ikkita asosiy gaz, karbonat angidrid va metan tarkibida uglerod mavjud. Ba'zi boshqa ifloslantiruvchi moddalar, hatto ular tarkibida uglerod bo'lmasa ham, soliqlar va kvotalarga tortiladi. Soliqlar, uglerod uchun kvotalarni sotish va kompensatsiyalar issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishda muhim qadam deb hisoblanib emissiya narxini belgilash usullaridan [16] bir nechtasidir.

Yuqoridagilarni inobatga olib, iqlimning o'zgarishiga olib kelayotgan sabablardan biri bu-insoniyatning tabiat qonuniyatlariga aralashuvidir. Iqlim ko'rsatkichlarining yil sayin tobora yomonlashib borayotganini insoniyat Yerdan shafqatsizlarcha foydalanishni davom ettirayotgani bilan bog'lash mumkin. Kishi kundalik hayotda elektr energiyasidan oqilona foydalanish mumkin: buning uchun intellektual termostat o'rnatish lozim, yorug'lik lampalarini energiyani tejaydigan lampalar bilan almashtirish [17] mumkin. Bundan tashqari, boshqa odamlarga qo'shib, jamoat transportidan foydalanish orqali ham qisqaroq masofalarga yetib borishingiz va shu bilan mashinangizdan chiqadigan zararni kamaytirishingiz mumkin. Yiliga bir yoki ikkita samolyot orqali parvozdan voz kechish, umumiy jihatdan olib qaraganda, zararlarni kamaytirishi mumkin. Ehtiyojimiz uchun elektr yoki gibrid avtomobildan foydalanishingiz yoki har bir inson uyiga quyosh panellarini o'rnatishi mumkin. Bu qadamlar kichik bo'lib tuyulishi mumkin, ammo bularning natijasi albatta ijobiy bo'ladi. Dunyo bo'ylab sodir bo'lgan ayanchli hodisalar ekologik xavfsizlikni ta'minlashning qo'shimcha mexanizmlarini ishlab chiqishga yetarli darajada kuchli turtki berishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ochilova B. Tabiatdan foydalanish bu insonning maqsadga muvofiq yo'naltirilgan faoliyati sifatida. Falsafa va huquq №4, 2007, b-60 2. Mustafoyev S., O'rinov S., Suvonov P. Umumiy ekologiya. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. Toshkent-2006, b-10-11
2. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muxofaza qilish. T.: «Yangi asr avlodi», 2005, b- 262-263 4. E. Usmonov. Ekologik munosabatlarning globallashuvi. Jamiyat va boshkaruv. Ilmiy-siyosiy, ijtimoiy- iqtisodiy, ma'anviy tarixiy jurnal. Toshkent, 2007, №2, 89-90-bet. 5. <https://uz.delachieve.com/>
3. "Ways to develop cooperation of higher education and professional educational institutions in the distribution of labor resources in the region".
4. KB Kurbanova - International Bulletin of Engineering and Technology, 2023
5. Ochilov S. B., Tursunova Z. N., Begmurodovna Q. X. "Study of changes in economic indicators depending on time using continuous functions" //Journal of Modern Educational Achievements. – 2023. – T. 10. – №. 1. – C. 143-149.
6. Xasanova G., Qurbonova X. "Ways to promote integrated collaboration of higher education and vocational colleges in economic modernization" //Интернаука. – 2020. – №. 7-1. – C. 66-69.
7. Karomatovna M. J. WAYS TO INCREASE THE INVESTMENT POTENTIAL OF THE REGION IN MODERN CONDITIONS //Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595). – 2023. – T. 3. – №. 2. View of WAYS TO INCREASE THE INVESTMENT POTENTIAL OF THE REGION IN MODERN CONDITIONS (sciencesage.info)
8. Musayeva J. K. O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA AKTIVLARNI BOSHQARISHNING O 'RNI VA ROLI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 4. – C. 554-564.
9. Karomatovna M. J. IMPACT OF ENTERPRISE ASSET MANAGEMENT ON THE PROCESSES OF GLOBALIZATION IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN //British View. – 2023. – T. 8. – №. 5. View of IMPACT OF ENTERPRISE ASSET MANAGEMENT ON THE PROCESSES OF GLOBALIZATION IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN | British View
10. Musaeva J. K., Khalilova M. A. FEATURES OF INVESTMENT PROCESSES OF THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION //Academia Science Repository. – 2023. – T. 4. – №. 04. – C. 618-628. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/3763/3615> DOI: <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/BGTE7>

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

11. Musayeva J.K. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda korxona aktivlarini boshqarish, globallashtirish va integratsiya jarayonlarining ta'siri. СОЛИҚ ВА ҲАЁТ ЭЛЕКТРОН ИЛМИЙ ОММАБОП ЖУРНАЛ, II СОН. 2023, 13-19-bet
12. Mukhsinov B., Yuldasheva S. Jamila Musaeva International journal of advanced science and technology vol. 29, no. 5, (2020) //issn. – 2005. – Т. 4238. – С. 1922-1926.
13. Musaeva J.K. Evaluation of the fixed capital of enterprises and the main ways of their effective use. "ЛОГИСТИКА ВА ИҚТИСОДИЁТ" илмий электрон журналы. 2022 ЙИЛ 2 СОН. 70-77 bet
14. Мусаева Ж. К., Халилова М. А. Қ. КОРХОНАЛАРНИНГ АСОСИЙ КАПИТАЛИНИ БАҲОЛАШ ВА УЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 200-217.
15. Мусаева Ж. К. ОЦЕНКА ОСНОВНОГО КАПИТАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ И ОСНОВНЫЕ ПУТИ ИХ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ //Журнал Инновации в Экономике. – 2022. – Т. 5. – №. 3.
16. Karomatovna M. J. Efficiency of introducing innovative approaches in higher education in uzbekistan //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1266-1275.
17. Мусаева Ж. К., Халилова М. А. РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА //ББК 65.0501 А 43. – 2022. – С. 283.